

№7 (3) 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Үрманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайниневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик
Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li</i>	
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR	9-15
<i>Zoqidov Қобилжон Тоиржонович</i>	
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ	16-20
<i>Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich</i>	
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIY TA'MINOT SIYOSATI	21-26
<i>Хайназаров Баҳромжон Баҳтиёрович</i>	
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЖОРӢЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ)	27-32
<i>Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРФИБОТИДА ТУТГАН ЎРНИ	33-41
<i>Bobodustov Bobur Mirzaboyevich</i>	
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI	42-47
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i>	
XX АСРНИНГ 30-50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА	48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Казаков Олим Сабирович</i>	
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙўНАЛИШЛАРИ	56-60
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i>	
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	61-67
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	68-76
<i>Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадирович</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО ТУРИЗМА	77-82
<i>Xolmurotov Fozil Saribayevich</i>	
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH	83-91
<i>Худайназарова Диляром Хайруллаевна</i>	
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	92-100

Ғойипназаров Санжар Баходирович
СУНЬЙИ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРӢӢ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕҲНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР 101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI 111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фарруҳ Абдураҳманович
АҲБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭҲТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙГУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ 120-126

Tojiboev Sarvar Pўлатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ 127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI 133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI 138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVİY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKALARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI 151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI 161-167

Мухамедова Феруза Баҳодир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА 168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimjanovich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI 175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARNING QO'LLANILISHI 181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI 186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Жавлиев Нурали Баходирович</i> МАЪМУРИЙ-ХУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ	191-195
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i> БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҶСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ХУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ)	196-204
<i>Usmanov Alisher Tolmasovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	205-213
<i>Авезова Элеонора Паракатовна</i> РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	214-218
<i>Муқумов Бобур Мелибод угли</i> ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	219-224
<i>Туракулова Назира Абдишукуровна</i> СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ: ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН	225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Хўжамкелдиев Faфур Султон ўғли</i> СПОРТ МАШФУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ	233-237
<i>Aziz Xasanovich Rajabiy</i> BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	238-242
<i>Malikova Sevar Samatovna</i> BO'LAJAK XOR RAHBARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	243-246
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ	247-251
<i>Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich</i> AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES	252-257
<i>Асадуллаева Наргиза</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ	258-265
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi</i> BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA КОМПЕТЕНСИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРISHNING PEDAGOGIK MODELI	266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Numonjonov Shohzodbek Dilshodjon uғli</i> OLIY TEHNIKA TA'LLIMIDA MEХNAT MUХOFAZASI VA TEHNIKA XAVFSIZLIGI KOИDALARINI ЎҚITISHDA ЭLEKTRON METODIK ASOSLARNING ILMIIY AҲAMIAHYI	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

09.00.00 – Фалсафа фанлари

Islamov Kamol Tashkulovich

Termiz davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVİY YONDASHUVLAR NISBATI

Annotatsiya. Maqolada Uyg'onish davri dunyoqarashida diniy va dunyoviy yondashuvlar nisbati ilmiy jihatdan tahlil qilindi. O'rta asrlarda din G'arbda ham, Sharqda ham feudal jamiyatning hukmron mafkurasi hisoblangan. Bu davrda cherkov eng yirik kuch bo'lgan. Teotsentrizm, ya'ni Xudoga, uning mohiyatiga dunyoning birinchi sababi va birinchi asosi sifatida yondashish o'rta asrlar falsafasiga xos xususiyat ekanligi maqolada asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: teotsentrizm, diniylik, dunyoviylik, o'rta asrlar falsafasi, tabiatshunoslik, falsafiy qarashlar, dunyoni bilish, uning mohiyati, ilohiy qonun.

Islamov Kamal Tashkulovich

Termez State University, applicant

RELIGIOUS AND SECULAR IN THE WORLD VIEW OF THE RENAISSANCE RELATIONSHIP OF APPROACHES

Abstract. The article scientifically analyzes the ratio of religious and secular approaches in the worldview of the Renaissance. In the Middle Ages, religion was considered the dominant ideology of feudal society in both the West and the East. During this period, the church was the greatest power. Theocentrism, that is, approaching God and his essence as the first cause and fundamental principle of the world, is a feature of medieval philosophy.

Keywords: theocentrism, religiosity, secularism, medieval philosophy, natural science, philosophical views, knowledge of the world, its essence, divine law.

Исламов Камал Ташкулович

Термезский государственный университет, соискатель

РЕЛИГИОЗНОЕ И СВЕТСКОЕ В МИРОВОЗЗРЕНИИ ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ СООТНОШЕНИЕ ПОДХОДОВ

Аннотация. В статье научно проанализировано соотношение религиозного и светского подходов в мировоззрении эпохи Возрождения. В средние века религия считалась господствующей идеологией феодального общества как на Западе, так и на Востоке. В этот период церковь была самой большой силой. Теоцентризм, то есть приближение к Богу и его сущности как к первопричине и первооснове мира, является чертой средневековой философии.

Ключевые слова: теоцентризм, религиозность, секуляризм, средневековая философия, естествознание, философские воззрения, познание мира, его сущность, божественный закон.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N19>

Kirish. Jahonda shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo va Evropa Renessansining o'zaro ta'sir xususiyatlari, IX-XV asr mutafakkirlari qarashlarida tabiiy-ilmiy va falsafiy bilimlar rivoji hamda Uchinchi Renessans poydevorini qurishning tarixiy-falsafiy asosini o'rganish eng dolzarb muammolardan biridir. Renessans davrida barcha mamlakatlar uchun shu narsa xarakterlik, fan va madaniyat Hind, Xuroson, Movarounnahr, Fors, Bobil, Misr, Yunon va Rim fani hamda madaniyatining aralashishi, bir-biriga singib borishi, ilm-fan sohasida erishgan yutuqlarning eng yuqori cho'qqisiga intildi. Shu jihatdan olganda, hozirda tez o'zgarayotgan, rivojlanayotgan va transformatsiyalashayotgan davrda Uchinchi Renessans vorislarini tarbiyalashda Sharq va G'arb Renessansining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqotda mantiqiylik, tarixiylik tamoyillari, induksiya va deduksiya, tizimli va komparativ yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. O'zbek milliy davlatchiligimiz negizlarining qadimiyligi haqida buyuk bobokalonimiz Yassaviyning hikmatlarida jamiyatda yetakchi shaxslarning sifatlari to'g'risidagi talqinlar, ayni paytda, achchiq tanqidiy munosabatlari ijodining asosini tashkil etadi. Chunki shu davrda shayxlar siyosatga bevosita aralashib kelganlar.

Bu borada Amir Kulolning o'g'li Amir Umarning qarashlari (1406 yilda vafot etgan) siyosatning nazariy va amaliy mohiyatini ochishda e'tiborlidir. Unda siyosatga shunday nisbat beriladi: «Bilgilkim siyosat - tutib turish va tartibga solishdir..., yomon kishilarni qo'rqinch va titroqda tutmoq, yaxshilarni taqdirlamoq kerak. Agar siyosat bo'lmasa, davlatning muhim ishlari amalga oshmaydi; agar tartibot, jazo qonunlari bo'lmasa, davlat ishlari ham o'nglanmaydi, chunki hukmdorning, jamoaning ko'rki, davlat va dinning rivoji siyosatdir» [1, 103a-b.]. Ya'ni, din orqali siyosatda umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilishi va bunday siyosat esa bevosita davlat qonunlari orqali amalda o'z tasdig'ini topishiga erishmoq lozim, deb qaraladi.

O'zining ishonchli hadislari bilan dunyoga tanilgan buyuk alloma Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy merosiga oid ilmiy izlanishlar 1990 yili Shamsuddinxon Boboxonov tomonlaridan «Al-Adab al-mufrad» asarining ko'p nusxada chop etilishi bilan boshlandi. «Al-Adab al-mufrad» (الأدب المفرد) birinchi nashriga kiritilmagan qismlarini to'ldirilgan holda 2006 yili Movarounnahr nashriyotida 2000 nusxada to'liq chop etildi [2]. Nashrdagi keyingi qismlarning tarjimasi Nu'mon Abdulmajid tomonidan amalga oshirilgan. Kitobga Asror Samadning nashr haqidagi kirish so'zi, Abduqahhor Ibrohimovning «E'tiqodga baxshida umr» nomli katta hajmdagi tarixiy-falsafiy badiasi hamda marhum SHamsuddin Boboxonovning «Al-Adab al-mufrad» (الأدب المفرد) ning birinchi nashrida berilgan «Imom Buxoriy va uning «Al-Adab al-mufrad» (الأدب المفرد) asari haqidagi maqolasi kiritilgan. Ma'lumki, «Al-Adab al-mufrad» (الأدب المفرد) o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. Shu nuqtai nazardan zamonaviy kitobxon asardan foydalanishda ma'lum qiyinchiliklarga uchraydi. YUqoridagi holatni engillashtirish maqsadida asardagi bir-biriga yaqin mavzudagi hadislarni birlashtirgan holda 2008 yili «Al-Adab al-mufrad» (الأدب المفرد) tarkibidagi odob-axloqqa oid hadislardan saylanma nashr etildi [3].

Imom al-Buxoriyning «Al-Adab al-mufrad» (الأدب المفرد) asariga bag'ishlangan eng so'nggi tadqiqotlardan biri SHayx Muhammad Sodiq Muhammad YUsufning «Odoblar xazinasi» asari hisoblanadi. Asar Imom Buxoriy tarjimai holiga oid kirish qismi bilan boshlangan. Unda

olimning asarlari, ularning qisqacha tavsifi haqida ma'lumot berilgan. Nashrning o'ziga xosligi shundaki, unda dastlab asar asliyatining o'zi o'zbek tilidagi tarjimasi bilan berilgan. Tarjimadan so'ng matnning batafsil sharhi keltirilgan [3]. Bu asarning 1,2,3 va 4 juzlari ham nashr qilindi.

Yurtimizda olimning asarlari tadqiqi va tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ham olib borilmoqda. Respublikamizda, xususan, Toshkentda Imom Buxoriy ilmiy merosi bo'yicha bir qator dissertatsiyalar yozildi va himoya qilindi. U.Uvatovning «Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida turgan o'rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy)» mavzusidagi islom tarixi va manbashunosligi ixtisosligi bo'yicha tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi [4]. B.Eshonjonovning «IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqeい va uning «Al-Jome' as-sahih» (الجامع الصحيح) asaridagi fiqhiy masalalar» mavzusidagi tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan nomzodlik dissertatsiyasi [5, 29-b.]. Toshkent islom universiteti qoshidagi Birlashgan ixtisoslashgan kengashda muvaffaqiyatli himoya qilingan.

U.Uvatov dissertatsiyasining katta qismi aynan Imom Buxoriyga bag'ishlangan. Dissertatsiyaning «Imom al-Buxoriy - hadis ilmining buyuk allomasi» deb nomlangan bobida olimning ilmiy-ma'naviy merosi, «al-Jomi' as-sahih» (الجامع الصحيح) Buxoriyning shoh asari ekanligi, asarga arab tilida yozilgan sharhlar, shuningdek unga bag'ishlab yozilgan turli risolalar tahlil qilingan. Tadqiqotda turli davrlardagi olimlarning Imom Buxoriy haqida bildirgan fikrlari ham batafsil berilgan.

B.Eshonjonov dissertatsiyasida ham Imom Buxoriy buyuk muhaddis sifatida talqin qilingan. Uning barcha asarlari uch guruhga tasniflanib tahlil etilgan. Ularning birinchisi roviylar haqidagi tarixiy biografik asarlar bo'lib, ular sirasiga «At-tarix al-kabir» (Katta tarix), «At-tarix al-avsat» («O'rta tarix التأريخ الأوسط), «At-tarix as-sag'ir» (Kichik tarix tarix asarlari kiritilgan. Ikkinchi guruh olimning tarixiy biografik asarlar deb nomlanib, unga «Kitab al-kuna» («Kunyalar kitobi»)، «Qazoya as-sahoba va at-tobi'in» (Sahobalar va tobe'iylarga tegishli masalalar قضايا الصحابة والتبعين)، «Asomi as-sahoba» (Sahobalarning ismlari أسامي الصحابة) asarlari kiritilgan. Imom Buxoriy asarlarining uchinchi guruhi fiqhiy masalalarga bag'ishlangan. Bu asarlar sirasiga «Al-qiroa' xalf al-imom» («Imomlar ortida namoz o'qish»)، «Kitob al-mabsut» (Fiqh haqida mufassal kitob كتاب المبسوط)، «Kitob al-ashriba» («Ichimliklar haqida kitob») kabi asarlar kiradi. Shuningdek, dissertatsiyada «Al-Jomi' as-sahih» (الجامع الصحيح) asarining fiqhiy masalalarni hal qilishdagi o'rniga alohida ahamiyat berilgan. Imom Buxoriy Qur'on va hadislarga suyanib, shariat hukmlarini chiqarishda yangi maktab yaratganligi turli dalillar bilan isbotlangan va uning huquqiy va tarixiy yodgorlik sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Mana o'n ikki asrdan buyon bu benazir insonning hayoti, uning nodir asarlari turli mamlakatlar olimlarining diqqat e'tiborini tortmoqda va bu mavzularda ular ham yuzlab asarlar yozgan. Mana shunday muhim asarlardan biri hindistonlik olim shayx Abdussalom al-Muborakfuriyning arab tilidagi «Siyrat al-Imom al-Buxoriy» («Imom Buxoriyning hayot yo'llari» سيرة الإمام البخاري) nomdagi katta hajmli risolasi sanaladi [5, 29-b.]. Aynan shu an'anaga muvofiq «Al-Jome' as-sahih» (الجامع الصحيح) asariga arab, fors, urdu va boshqa tillarda mashhur sharh va hoshiyalar yozilgan. Abdussalom al-Muborakfuriy yuqoridagi kitobida asarga yozilgan arab tilidagi 107 ta, fors hamda urdu tilidagi 38 ta sharh va hoshiyalarni keltiradi va ular haqida qisqacha ma'lumotlarni beradi.

Shayx Abdussalom al-Muborakfuriy asarni katta hajmdagi xotima bilan yakunlaydi. Xotimada Imom Buxoriyning shogirdlari Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Imom Abu Iso at-Termizi, Imom an-Nasoiy, Al-Firabriy, Imom ad-Dorimi, Solih ibn Muhammad Jazara, Imom Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Imom Abu Hotam ar-Roziy, Imom Ibrohim al-Harabiy, Al-Hofiz al-Kabir Abu Bakr ibn Abu Osim, Ibn Huzayma, Abu Ja'far Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq, Husayn ibn Ismoil al-Muhomiliy, Ibrohim ibn Ma'qil an-Nasafiylarning hayoti va ilmiy merosi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Kitob asar muallifining shogirdlik silsilasi va uning Imom al-Muhaddisiynga sanadi bilan tugallangan [7, 496-b.].

SHayx Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf tomonidan Imom al-Buxoriy «al-Adab al-mufrad» (الأدب المفرد) kitobining sharhining 1, 2, 3 va 4 juzlari 2015, 2017, 2017 va 2020 yillarda nashr qilindi [6, 7, 8, 9].

Asarda sufylarning ta'limotiga alohida e'tibor berilgan, muallif ularni hind nazariyalariga juda yaqin deb hisoblaydi. Lekin ular haqidagi ma'lumotlarni biron manba bilan asoslamaydi yoki umumiylar tarzda tasavvuf haqida va ularning ta'limotlari haqida so'z boradi, yoki ilk tasavvufning mashhur namoyandalari Abu Bakr ash-Shibliy va Abu Zayd al-Bistomiyning ba'zi baytlari eslatiladi. Evropadagi tasavvufning yirik bilimdoni va tadqiqotchisi M.Massinon o'z ishlarida «Hindiston»dagi tegishli joylarni boshlang'ich manba sifatida jalb qilgan» [7, 81-b.].

Naqshbandiya ta'limotida barkamol inson g'oyasi yetakchi ahamiyatga ega. Sababi G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband hazratlari quyidagi o'n bitta qoidadan iborat ta'limotni yaratganlar.

1. «Hush dar dam» (هوش در دم). Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, olam ikkiga: foniya boqiy dunyoga bo'linadi. Bu olam foniyo-o'tkinchi dunyodir. Inson uchun cheklangan miqdordagi bu dunyon har bir lahzalarini hush o'tkazmog'i kerak bo'ladi.

2. «Nazar bar qadam» (نظر بر قدم). qoidasi kishining hayotida qo'yadigan har bir qadami nazorat ostiga olinmoqligini ta'kidlaydi. Bu qoida o'zlikni tanishga, idora etishga qaratilgandir. Bunda inson har bir qo'yilgan qadamini, har bir so'zini va fe'li-xayolini nazorat qilib turmog'i kerak. Har bir insonning o'z-o'zini nazorat qilishi esa uni barkamollikka, Haqqa etaklaydi.

3. «Safar dar vatan» (سفر در وطن). Inson borki, u sayyoh. Uning hayoli sayyoh, jismi sayyoh. Islomda safarning eng oliysi- bu Haq yo'liga safar. Tiriklikda esa kishining eng oliy safari Haj safaridir. Tasavvufda darvish-qalandarlarning asosiy xususiyati safar qilib, hayot kechirish bo'lgan. Bu tartib naqshbandiyada ham o'z ifodasini topgan.

4. «Xilvat dar anjuman» (خلوت در انجمن). Uning oddiy ifodasi jamoa ichida yakkalik, yolg'izlik demakdir. Hazratdan «tariqatingizning asosi nimadan iborat?», deb so'raganlarida, «Xilvat dar anjuman ba zohir bo xalq va ba botin bo Haq», - deb javob bergenlar. Bu jumla «xilvat dar anjuman»ning mantiqiyyasharhidir.

5. «YOdkard» (پاد کرد) - bu qoida «Rashahot» (رشحات) [11, 13-b.] da bayon etilishicha, lisoniy yoki qalbiy zikrdir. Yodkard qoidasidan keyingi uch maqom avvalgi maqom-qoidalarni mazmunan to'ldirib boradi. YOdkardning ma'nosini tariqatdagi sufylar foniya dunyoda hamisha Haq yodi bilan yashamog'i lozimligini anglatadi.

6. «Bozgasht» (بازگشت) - buning ma'nosini inson umrining foniyligi, undan albatta boqiy dunyoga qaytajakligi ta'kidlanadi.

7. «Nigohdosht» (نگاه داشت) - buning ma'nosini kishi o'zini har qanday shaytoniy yomon yo'llardan pok saqlashi kerakligini uqtirishdir.

8. «Yoddosht» (پاد داشت) - Haq subxonahu va taoloni doimo zavqu-shavq bilan yodda (xotirada) tutib, ogoh bo'lishdir.

Ma'lumki, naqshbandiya tariqatida Bahouddin Naqshbandning o'zlarini asos solgan rashhalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular uchta bo'lib, tariqatning 9,10,11-rashhalarini tashkil etadi:

9. «Vuqufi zamoniy» (وقف زمانی) - buning ma'nosi sufiy o'z umridagi har bir daqiqani, soniyani Ollohga shukr aytish bilan va uning bandalariga faqat yaxshilik qilish bilan o'tkazmoqlikni bildiradi.

10. «Vuqufi adadiy» (وقف عددی) - buning ma'nosi zikr jarayonida tartib, son alohida o'rinni tutishligini qayd etishdan iborat. «...ul zikrda adadni rioya etmakdin iboratdur» [12, 39-b.]. Muqaddas duolarni, kalimalarni zikr qilinishini bilish va unga rioya qilish kerakligini uqtiradi.

11. «Vuqufi qalbiy» (وقف قلبی) - buning ma'nosi sufiyning zikri qalban bo'lmog'i zarurligini ifodalaydi.

YUqoridagi o'n bir muqaddas qoidalarni mukammal bajargan kishi esa barkamol inson darajasiga etishadi.

Imomi Termiziyning «Al-jomi'us-sahih» («Sunani Termiziy») asarida mavzu' hadis bor-yo'qligini tekshirgan olimlarning fikricha asardagi biror hadis mavzu' emas ekan. To'g'ri Ibni Javziy 23 hadisni mavzu' degan, biroq Suyutiy bu fikrni keskin inkor qilgan.

«Al-jomi'us-sahih» («Sunani Termiziy») asariga yozilgan sharhlarga kelsak, bu asar ulamolar ommasiga o'ta maqbul bo'lganidan unga ko'plab sharhlar va hoshiyalar yozganlar. Kitobning mashhur sharhlari quyidagilar:

1. Asqaloniy. «Al-Lubob fi sharhi Termiziy va fil-bob» (الباب في شرح الترمذى و في الباب).
2. Alloma Anvarshoh Kashmiriy. al-Arfash-SHaziy tahriri ostida «Jomi' Termiziy» (العرف الشذى).
3. Alloma Sirojiddin ibn al-Mulqan. «SHarhu ibn al-Mulqan» (شرح ابن الملقن).
4. Qozi Abu Bakr ibn al-Arabiyy. «Orizat al-ahvaziy bi-sharhi «Jomi' Termiziy» (عارضه الأحوذى بشرح جامع الترمذى).

Muhaddis ulamolar Termiziy haqida gapirib, Termiziyni juda maqtaganlar. Bu borada Imom Buxoriyning ushbu mashhur so'zlarini keltirish kifoya; u zot o'z shogirdi Imom Termiziyni g'oyat qadrlab, kamtarinlik bilan: «Sen mendan bahramand bo'lganidan ham ko'ra men sendan ko'proq bahramand bo'ldim», deydilar. Bu so'z Termiziyiga berilgan ulkan bahodir.

Dunyo miqyosida arablarga arab grammatikasini o'rgatgan zabardast olim Az-Zamaxshariy jahonda g'oyatda keng tanilgan «Al-Kashshof an haqoqit it-tanziyl va uyun ilgaqoviyl fi vujuh it-ta'viyl» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlarini ochish») asari Qur'on tafsiriga bag'ishlangan [15, 12-15-bb.]. Az-Zamahshariy o'zining «Al-Kashshof» (الكاف) asari garchi e'tizoliy aqidaga muvofiq yozilgan bo'lsa ham, Qur'oni Karimning mo'jizalik siri, nazmining go'zalligi va balog'atdagi yuksak darajasi muallif tomonidan o'ziga xos tarzda oolib berilgan. Buning asosiy sababi Az-Zamahshariyning juda ko'p ilm sohalarini, xususan arab lug'atining jozibakorligi, ash'orlar, balog'at, bayon, e'rob, adab ilmlarini mukammal bilganligi bilan bog'liq.

Az-Zamahshariyning axloqiy ta'lomit iislom falsafasining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. U o'zining falsafiy-axloqiy g'oyalarini og'zaki bahs-munozara shaklida rivojlantirdi. Insonning yashash qobiliyati, uning fikricha, zavq va azob o'rtasida nimani tanlashiga bog'liq.

Uning fikricha, insonning lazzat va iztiroblar olami juda murakkab bo'lib, turli axloqiy yuksaklikka intilishda inson o'ta mashaqqatlarga duch keladi. Az-Zamahshariyning fikricha, bilim va ezhgulik bir-biriga o'xshash bo'lib, u insonning asosiy vazifasini bilim olish asosidagi hayot tarzi deb bilgan. Bilim manbai, uning fikricha, insonning ma'naviy-ruhiy faoliyatidir. Bundan alloma har bir inson o'z ruhini bilishi kerak degan xulosaga keladi.

Xulosalar. Dinda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Islomdagi ismoiliylik ta'siri ostida shakllangan qator bid'atlar qit'alar oshib Janubiy Fransiya, Provansgacha borib etadi va albigoychilik nomi ostida keng tarqaldi. Muqaddas islam dini nafaqat boshqa samoviy dinlarning axloqiy ta'limotlarini davom ettirib, takomillashtiribgina qolmay, balki ularni inson va jamiyat hayotida amalda qo'llashga harakat qilgan. Muqaddas islam dini ta'limotlari go'zal axloq, mehr-oqibat, inson va mo'minlarga hurmat va g'amxo'rlik tamoyillari bilan to'la, hurmat va insoniylik darajasi diniy muqaddaslik bilan bog'liq. Islomda hurmat, avvalo, ota-onani hurmat qilishdan, ularning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatidan, yo'lovchilarga, miskinlarga, musulmon bo'limganlarga hurmat ko'rsatishdan boshlanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mahomat-i sayyid Amir Kulol. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti № 8667 son qo'lyozma. – V. 103a-b.
2. Imam Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. - Toshkent: Movarounnahr, 2006.
3. Imam Buxoriy. Al-Adab al-mufrad (Odob-axloqqa oid hadislar. Saylanma). Tuzuvchilar: Z.Islomov, A.G'.Abdullaev. - Toshkent: «Toshkent islam universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
4. Uvatov U. «Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida turgan o'rni» (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, - Toshkent, 2004.
5. Eshonjonov B. IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imam al-Buxoriyning mavqeい va uning «Al-Jome' as-sahih» asaridagi fiqhiy masalalar. – Toshkent, 2001, 29-bet.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. Imam al-Buxoriy «Al-Adab al-mufrad» kitobining sharhi. 1 juz. - Toshkent: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2015. – 528 b.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. Imam al-Buxoriy «Al-Adab al-mufrad» kitobining sharhi. 2 juz. - Toshkent: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2017. – 496 b.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. Imam al-Buxoriy «Al-Adab al-mufrad» kitobining sharhi. 3 juz. - Toshkent: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2019. – 464 b.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. Imam al-Buxoriy «Al-Adab al-mufrad» kitobining sharhi. 4 juz. - Toshkent: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2020. – 424 b.
10. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2022. – B.81.
11. Шайх Баҳовуддин Накшбанд: его значение для религиозного мировоззрения, влияние его учения на этику и политику. – Ташкент: Мовароннахр, 1997. – С 13.
12. Faxruddin Ali Safiy. Rashahot. (Obi hayot tomchilari). - Toshkent: Ali Abu ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. – B. 39.

13. Hofiz Az-Zahabiy: «Miyzonul-i'tidol»; qarang: «Sunani Termiziy» so'zboshisi. 12-13-betlar. - Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi «Adolat» nashriyoti, 1999.
14. Abu Iso Muhammad Termiziy. Sunani Termiziy. 1-jild. Mirzo Kenjabeck tarjimasi. - Toshkent. «Adolat» nashriyoti, 1999.
15. Az-Zamahshariy. Al-Kashshof, 1j. 12-15-6.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).